

Vol. 4 Issue 10 | pp. 445-450 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA SIFATNI OSHIRISH TIZIMIGA INNOVATSİYALARНИ JORIY ETISH USLUBIYOTI TAHLILI

**Zarikeyeva Miyasar Maratovna**

Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori.,

Samarqand Davlat veterinariya meditsinasi,

chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali  
“Iqtisodiyot va gumanitar fanlar” kafedrasi katta o'qituvchisi.**Muratbaeva Sabira Bekmurzaevna**

Samarqand Davlat veterinariya meditsinasi,

chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

“Buxgalteriya hisobi va audit” mutaxasisligi talabasi

**Annotatsiya:** Jahonda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda servis sohasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati benihoya katta bo'lishi sharoitida xizmatlar ko'rsatish bozoridagi raqobatning keskinlashib borishiga ko'ra sohada innovatsion faoliyatni rivojlantirish va xizmatlar sifatini oshirish tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. "Rivojlangan davlatlarda yalpi ichki mahsulot tarkibida xizmat ko'rsatish sohasining ulushi 65-80 %ni, ilm-fan va innovatsion faoliyatni investitsiyalashga sarflanayotgan mablag'lar hissasi esa 3,0 %ni tashkil etmoqda. Rivojlangan davlatlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi bandlik ulushi 70,0 % va to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmining 40,0 %ga to'g'ri kelmoqda". Bugungi kunda raqobat muhitining yanada chuqurlashishi sharoitida servis sohasida innovatsion faoliyatni faol rivojlantirishga va xizmatlar sifatini oshirishga muhim muammolar sifatida qaralmoqda. Yangi O'zbekistonning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashda servis sohasini samarali rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun maqolada xizmat ko'rsatish sohasi va tarmoqlari rivojlanishining xizmat turlari bo'yicha fikr yuriltilgan.

**Kalit so'zlar:** xizmat, xizmatlar sohasi, resurslar bazasi, talab va taklif.

**Annotation:** the socio-economic importance of the service sector in ensuring economic growth in the world is becoming more and more important to develop innovative activities and improve the quality of services in the field, due to the increasing competition in the market for the provision of services in the conditions of Greater benihoya. "The share of the service sector in the structure of GDP in developed countries is 65-80%, and the contribution of funds spent on the investment of Science and innovative activities is 3.0%. The share of employment in the service sector of developed countries is 70.0% and 40.0% of the volume of direct investment". Today, in the context of a more deepening competitive environment, it is seen as important problems for the active

development of innovative activities in the service sector and the improvement of the quality of services. In ensuring the economic and social development of the new Uzbekistan, it is important to effectively develop the service sector. Therefore, the article focuses on the types of services for the development of the service sector and networks.

**Keywords:** service, service sector, resource base, supply and demand.

**Аннотация:** развитие инновационной деятельности и повышение качества услуг приобретают все большее значение в связи с обострением конкуренции на рынке услуг в условиях неоценимой социально-экономической значимости сферы услуг в обеспечении мирового экономического роста. "В развитых странах доля сферы услуг в структуре ВВП составляет 65-80%, а вклад средств, направляемых на инвестиции в науку и инновационную деятельность,-3,0%. Доля занятости в сфере услуг развитых стран составляет 70,0% и 40,0% объема прямых инвестиций". Сегодня в условиях дальнейшего углубления конкурентной среды важными проблемами рассматриваются активное развитие инновационной деятельности в сфере сервиса и повышение качества предоставляемых услуг. В обеспечении экономического и социального развития нового Узбекистана важное значение будет иметь эффективное развитие сферы сервиса. Поэтому в статье рассматриваются виды услуг развития сферы услуг и отраслей. **Ключевые слова:** сервис, Сфера услуг, ресурсная база, спрос и предложение.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlanishining bugungi bosqichida xizmatlari miqdori va sifati bo'yicha yuqori talablar qo'yilmoqda. Yetakchi xorijiy davlatlar tajribasining joriy etilishi xizmatlarga talabni o'sishini ta'minlamoqda. Mazkur holat iste'mol bozorida talab va taklif nisbatining tarkibiy o'zgarishini namoyon qilmoqda. Insonlarning moddiy farovonligi va turmush darajasining uzlusiz oshib borishi natijasida xizmatlarga talablari bo'lgan iste'molchilarning alohida yangicha ko'rinishdagi kategoriyasi paydo bo'ldi. Iste'molchilar farovonligini ta'minlanishi natijasida turli xil zamonaviy xizmatlarga talab muntazam o'sib bormoqda. Shu jihatdan olib qarasak, ba'zi xizmat ko'rsatish korxonalari o'zlarining faoliyatini ushbu kategoriyadagi aholi guruhlarining ehtiyojlarini qondirishga yo'naltiradilar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishishning muhim yo'nalishitidir. Chunki, xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari va tashkilotlarini rivojlantirish zarurati intensiv rivojlanish darajasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, aholi turmush darajasi, sifati va bandlik masalalarini hal qilishda muhim omildir.

Xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiyotdagi roli va ahamiyati sohaning tashqi omillar o'zgarishiga elastikligi, milliy mahsulotlarning ko'plab turlariga ichki talabni oshirishi, kapital talabchanlikning pastligi, sohaga sarflangan xarajatlarning o'zini tez qoplashi, iste'mol bozorini barqaror rivojlanishiga ta'siri va yangi ish o'rinnari yaratishga xarajatlarning nisbatan pastligi bilan izohlanadi.

Xizmatlar bozorining holati soha rivojlanishining jami ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlari va ko'rsatkichlarini aks ettiradi. Iqtisodiy o'sish bosqichida investitsiyalarning yuksalishi tarmoqlarda bandlik darajasini oshiradi, aksincha inqiroz davrida esa korxonalar va firmalar o'zlarining mavjud imkoniyatlaridan kelib chiqib, resurslardan tejab-tergab

foydalanimishga harakat qiladilar. Boshqa tomondan, iqtisodiyot, xususan, xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarining rivojlanishi ko'pincha shunga bog'liq bo'ladiki, tezlik bilan moliyaviy va texnologik imkoniyatlari asosida innovatsion faoliyatni jadallashtirishga shart-sharoitlari vujudga keladi.

Xizmat ko'rsatish sohasi unda faoliyat yuritadigan korxonalar va tashkilotlar sonining ko'pligi hamda tarmoq xususiyatlari bilan belgilanadi. Mazkur sohada faoliyat yurituvchi xo'jalik subyektlarining iqtisodiy imkoniyatlari va holati ichki va tashqi omillar ta'siri darajasi orqali ifodalanadi. Shunday ekan, xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarida o'zining rivojlanish yo'nalishi, mavjud resurslari salohiyati va miqdoriga qarab tasniflanuvchi korxonalar, tashkilotlar va firmalar faoliyati aniq belgilangan me'yorlar asosida tartibga solinadi. Shunday ekan, belgilangan me'yorlar asosida innovatsiyalarni joriy etish va investitsion faoliyatni amalga oshirish imkoniyatlari va ko'lami aniqlanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mintaqada jami xizmatlar hajmi 2023-yilda 12 875,6 mlrd. so'mdan iborat bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilga nisbatan 2,8 martaga o'sgan. Respublikada eng yuqori o'sish sur'atlariga ega tarmoqlar sifatida moliya xizmatlari (4,88 marta), ta'lim xizmatlari (3,37 marta), sog'liqni saqlash xizmatlari (3,02 marta), transport xizmatlari (2,46 marta), shaxsiy xizmatlar (2,73 marta) hissasiga to'g'ri kelgan

(2-jadval)

**2-jadval**

**Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasi va tarmoqlarida xizmatlar turlari bo'yicha hajmi (mlrd. so'm)**

<b>Sohalar va tarmoqlar</b>	<b>Yillar</b>						<b>2018-2023 y.y.da o'zgarish, (%)</b>
	<b>2018</b>	<b>2019</b>	<b>2020</b>	<b>2021</b>	<b>2022</b>	<b>2023</b>	
Jami xizmatlar	4600,2	5671,8	6520,3	8458,4	10421,9	12 875,6	2,80
Shu jumladan:							
Aloqa va axborotlashtirish	344,6	352,4	383,1	448,7	545,0	680,5	1,97
Moliya xizmatlari	606,8	1003,6	1287,9	1692,1	2228,6	2 961,6	4,88
Transport xizmatlari	1292,8	1486,3	1673,4	2303,7	2830,1	3 180,8	2,46
Shu jumladan: avto-transport xizmatlari	701,4	807,5	860,5	1159,4	1279,3	1 557,0	2,21
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	137,3	161,6	168,9	185,5	230,7	403,6	2,93
Savdo xizmatlari	1127,	1323,	1547,	1913,	2267,0	2	2,40

	0	1	3	8		714,3	
Ko'chmas multk bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar	158,2	165,1	165,3	206,4	239,9	317,8	2,01
Ta'lif xizmatlari	224,3	302,2	369,1	568,1	677,6	755,9	3,37
Sog'liqni saqlash xizmatlari	52,7	65,1	74,3	99,9	133,5	159,2	3,02
Ijara xizmatlari	103,6	124,8	140,2	159,5	188,8	210,4	2,03
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash	156,0	174,5	189,1	239,9	297,8	375,9	2,40
Shaxsiy xizmatlar	182,8	214,0	235,3	304,2	385,1	500,4	2,73
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	73,2	110,0	89,8	92,5	119,9	174,1	2,37
Boshqa turdag'i xizmatlar	141,1	189,2	196,7	244,1	277,7	441,2	3,12

Resurslar bazasi xizmat ko'rsatish sohasi korxonalar samaradorligi va uzlusiz faoliyat ko'rsatishi uchun zarur shartdir, chunki faoliyatning o'z vaqtida va to'liqligi, mehnat unumdarligining o'sishi va xo'jalik yuritishning innovatsion usullarini qo'llash imkoniyatini oshiradi hamda bu jarayon resurslar ta'minoti va ularidan samarali foydalanishga bevosita bog'liq. Resurslar bazasi, birinchidan, optimal strategiyani shakllantirish manbai sifatida, ikkinchidan, korxonaning tashqi muhitiga ta'sir etish omili, uchinchidan, korxona harakatlari yo'nalishini belgilovchi omil sifatida gavdalanadi.

Resurslarni birlashtirish: birinchidan, xodimlarning professional tarkibini yaxshilash; ikkinchidan, alohida biznes-birligida sinovdan o'tgan boshqaruv texnologiyalarini takomillashtirish; uchinchidan, bozorning katta ulushini qamrab olish; to'rtinchidan, resurslarni uzlusiz ta'minlash va uskunalardan optimal foydalanish; beshinchidan, resurslarni eng muhim sohalarda to'plash imkonini beradi.


Bizning fikrimizcha, xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy samaradorlikka erishish va investitsion faoliyatni rivojlantirish quyidagi tadbirlarni realizatsiya qilishni o'z ichiga oladi:

- iqtisodiy boshqaruvning turli xil tashkiliy-huquqiy mexanizmlari asosida korxonalar faoliyatini tartibga solish;
- mavjud bozordagi talab va taklif nisbatini va holatini muntazam hisobga olib borish;
- institutsional tuzilmalar va innovatsiyalarga talab va taklifdan kelb chiqib innovatsion-investitsiyalarni jalb qilish manbalarini kengaytirish orqali ushbu

- yo‘nalishdagi faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning zamonaviy shakllari va usullarini takomillashtirish;
- xo‘jalik subyektlari o‘rtasida o‘zaro aloqalarning yangi tizimi rivojlanishining bosqichlarini aniqlash lozim.

Mahalliy va xorijiy investitsiyalar hajmining ortishi xo‘jalik subyektlarining asosiy fondlari texnologik yangilanishiga, xizmatlar ekporti, texnologiyalar importi va amaliy tajriba ko‘nikmalarining o‘sishiga imkon beradi. Shunday ekan, bizning fikrimizcha, yaqin istiqbolda mamlakat iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilishga qaratilgan davlat hokimiyati miqyosida amalga oshiriladigan siyosatning asosiy vazifalari bo‘lib quyidagilar hisoblanishi kerak, jumladan:

- me‘yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish orqali xizmat ko‘rsatish sohasida biznes yuritish muhitini yanada yaxshilash;
- xorijiy investitsiyalarni jalg qilish bo‘yicha hududiy investitsion siyosatni takomillashtirish;
- xorijiy investitsiyalarni sug‘urtalashning amaliy mexanizmini takomillashtirish;
- xorijdan kirib kelayotgan investitsiya mablag‘larini tarmoqlararo taqsimlash tizimini takomillashtirish.



**1-rasm. Qoraqalpog‘iston Respublikasi xizmat ko‘rsatish sohasida ishlab chiqarilgan xizmatlar hajmi va unga kiritilgan investitsiyalar o‘zgarishining dinamikasi, mlrd. so‘m**

1-rasmda Qoraqalpog‘iston Respublikasi xizmat ko‘rsatish sohasida ishlab chiqarilgan xizmatlar hajmi va unga kiritilgan investitsiyalar o‘zgarishining dinamikasiga nazar solsak, 2017-yilda jami xizmatlar hajmiga nisbatan investitsiyalar ulushi 37,7 %ni, 2021-yilda esa 33,3 %ni tashkil etgan. Bundan ko‘rinadiki, sohada investitsion jozibadorlik nisbatan pasayish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Buning asosiy sababi, mamlakatimizda qayta moliyalashtirish stavkasining nisbatan yuqoriligi investitsiyalarga bo‘lgan talabni paysatirmoqda.

Investitsion faoliyat va amalga oshirilayotgan investitsion siyosat butun bir xo‘jalik yuritishning makroiqtisodiy tizimidan alohida ravishda samarali rivojlana olmaydi. Shu sababli davlat hokimiyati miqyosida qabul qilinayotgan boshqaruv qarorlari barcha darajadagi boshqaruv tuzilmalari bilan muvofiqlashtirilishi va alohida tarmoq va faoliyat

sohalarining talablariga javob berishi kerak. Bunday shart-sharoitlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yuqori ko'rsatkichlariga nafaqat alohida tarmoqlar, hududiy tuzilmalar miqyosida, balki butun mamlakat miqyosida erishishning imkonи tug'iladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Балабанов.И.Т., Инновационный менеджмент. [Текст] // И.Т. Балабанов. - СПб.: Питер, 2001 г. 304 с.
2. Буткевич С.К. Инновации в современном туризме // курорты. Сервис. Туризм. 2016 г. № 2 (31). с. 16-18.
3. Urakov J.R. Xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatlari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi (Samarqand viloyati misolida) // diss. iqt. fan. nomzodi. – Т.: SamISI. 2011. 15-16 b.
4. Козенкова Т. А. Концептуальные и методологические основы управления финансами интегрированных предпринимательских структур. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук 08.00.10 – М.: 2009.
5. Zarikeyeva M.M., "Servis sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish xa xizmatlar sifatini oshirish (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida)" Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati. Nukus.: 2024-y. 55 bet.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

